



O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI

Chutova Gulyuz Elmurod qizi

Ergasheva Hilola Ilhom qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi I-kurs talabalari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada lug'at tarkibining shakllanishi, uning tarkibiy xususiyatlari va til tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Unda leksik birliklarning lug'atga kiritilish mezonlari, ularning tarixiy, ijtimoiy va funksional jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda lug'at boyligini o'rganishning dolzarb masalalari yoritiladi. Maqolada taqdim etilgan fikr va kuzatuvlar til birliklarini tizimli ravishda tasniflash va lug'atshunoslik jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari til madaniyatini rivojlantirish hamda zamonaviy lug'at tuzish amaliyotida muhim manba bo'la oladi.*

Annotation: *This article discusses the vocabulary (lexicon) of the Uzbek language and its stages of development, the processes of creating dictionaries, the process of word formation, the enrichment of lexical units under the influence of national and international factors, and the lexical connections between the literary language and dialects.*

Keywords: *Lexicon, literary language, dictionary, language, spelling, dictionaries, lexical units, words and word forms, lexicalizers, etc.*

Абстрактный: *В статье рассматриваются словарный состав узбекского языка и этапы его развития, процессы создания словарей, процесс словообразования, обогащение лексических единиц под влиянием национальных и интернациональных факторов, лексические связи литературного языка с диалектами.*

Ключевые слова: *Лексика, литературный язык, словарь, язык, орфография, словари, лексические единицы, слова и словоформы, лексикон и т. д.*

Til – har qanday xalqning milliy tafakkuri, ma'naviyati va madaniyatini aks ettiruvchi eng asosiy vositalardan biridir. Til boyligi esa, eng avvalo, uning lug'at tarkibi orqali namoyon bo'ladi. Har bir tilda mavjud so'zlar, iboralar, atamalar va boshqa leksik birliklar o'zaro murakkab munosabatlar asosida tizimga birlashib, lug'at tarkibini tashkil etadi. Lug'at tarkibi til taraqqiyotining har bir bosqichida kengayib, yangilanib boradi, mazmunan boyiydi va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashadi.

Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalariga qaraganda tez va sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Avvalo, leksikaning miqdor jihatdan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

boyishi, balki sifat jihatdan ham rivojlanishi muhimdir. Leksikadagi taraqqiyot, katta o'zgarishlarga sababchi bo'lib, so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrimlari o'z ma'nosini yo'qotishi, iste'moldan butunlay chiqarib yuborilishi kabi hodisalar yuz beradi. Yillar davomida, balki asrlar davomida o'zgarishlar ma'lum darajaga yetib kelganda, ularda nazariy va amaliy jihatini aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy va etimologik lug'atlar tuzish hisoblanadi. O'zbek tili leksikasi haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbek leksikografiyasining tarixi Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda yaratilgan mashhur "Devoni Lug'otit türk" asari bilan boshlanadi. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Mahmud Zamaxshariyning "Asos ul-balog'a" asari "Muqaddimat ul-adab" (XII asr) deb nomlanuvchi to'rt tili (arab, fors, o'zbek, mo'g'ul) lug'ati bilan amaliy va nazariy leksikografiya rivojiga katta hissa qo'shdi. Tols Imoni Xiraviyning "Badoe-ul lug'at" (XV asr) chig'atoy-forscha lug'ati, "Abushqa" nomi bilan mashhur chig'atoy-forscha izohli lug'ati (XVI asr) Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" deb nomlangan o'zbekcha-forscha lug'ati (XVII asr) Mirzo Maxdiyxonning "Sanglox" nomli lug'atini misol qilib keltirsak mubolag'a bo'lmaydi.

Sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi tufayli an'anaviy lug'atchilik bilan bir qatorda XIX asrning 2-yarmidan boshlab shu yo'nalishdagi o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha va umumturkiy tillar leksikasini izohlovchi lug'atlar paydo bo'ldi.

O'zbek lug'atshunoslik tarixida XX asr alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda turli maqsadlarga qaratilgan terminologik lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, har xil turdagi so'zlashgichlar yaratildi. O'zbek tilining birinchi izohli lug'ati 1949-yilda nashr etilgan bo'lib, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlanganligini ko'rishimiz mumkin. Muharriri Lutfulla Bekmuhamedov (bosh muharrir) hisoblanadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyotida bosib chiqarilgan. Ushbu to'plam ham O'zbek tili leksikasining boyishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Lug'atda asosan o'zbek tilining bosib o'tgan tarixiy yo'li hamda leksikasidagi so'zlar ushbu lug'atga kiritilgan edi. Masalan: Ezma-churuk so'zining qisqacha tahlil qilsak, ushbu so'z ijtimoiy hayotimizda iste'moldan chiqqan so'zlarda biri hisoblanadi. Ushbu so'zning ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, ezma so'zi hammamiz uchun tanish. Churuk so'zini esa ayrim badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin. Said Ahmadning "So'ngi nusxa" ushbu asarida "Nima qilib bu ezma-churukni sudrab yuribsiz, beti qursin" deya ushbu salbiy bayroqdagi so'z ishlatilgan. Keyinchalik, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi H. Sulaymonova nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan ikki jildlik O'zbek tili izohli lug'ati tuzildi. Ba'zida bu lug'at 5 jildlik mukammal usuldagi lug'atning soddalashtirilgan yoki umumlashtirilgan shakli sifatida ko'riladi. Lug'atda 50 mingdan ortiq so'z va ibora





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jamlangan. Soʻzlarning maʼnolari, sinonimlari, baʼzan antonimlari, uslubiy belgilari, qoʻllanilish misollari bilan berilgan. Zamonaviy oʻzbek adabiy tili meʼyorlariga asoslangan. Ilmiy, badiiy, publitsistik uslublarda qoʻllaniladigan soʻzlarga alohida eʼtibor qaratilganligini koʻrishimiz mumkin. Lugʻatda 50 mingdan ortiq soʻz va ibora jamlangan. Soʻzlarning maʼnolari, sinonimlari, baʼzan antonimlari, uslubiy belgilari, qoʻllanilish misollari bilan berilgan. Zamonaviy oʻzbek adabiy tili meʼyorlariga asoslangan. Ilmiy, badiiy, publitsistik uslublarda qoʻllaniladigan soʻzlarga alohida eʼtibor qaratilgan edi. Ushbu izohli lugʻat oʻzbek tiling leksikasining boyishida asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. 2006-2008 yillar orasida Oʻzbek tilining izohli lugʻati (5 jildlik) Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi H. Sulaymonova nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari Bosh muharrirlar: Madaminov Neʼmatulla, boshqa yetakchi tilshunos olimlar ishtirok etgan. 80 mingdan ortiq soʻz va iboralar izohlangan. Ushbu Oʻzbek tilining izohli lugʻatida 80 mingga yaqin soʻz va soʻz birikmalari, fan, texnika, sanʼat va madaniyat sohaslariga oid terminlar bir necha shevalarda qoʻllaniladigan soʻzlar, baʼzi tarixiy va eskirgan atamalarni oʻz ichiga oladi. Lugʻatda berilgan soʻzlarning amalda qoʻllanilishi XX asr oʻzbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan shakllangan. Lugʻat oʻzbek tilshunosligi va turkiyshunoslik boʻyicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari vakillari va keng oʻquvchilar uchun moʻljallanganidir.

Har bir soʻz uslubiy belgilari, qoʻllanilish misollari, Sinonim, antonim yoki omonimlari bilan keltirilgan Zamonaviy adabiy til meʼyorlari asosida tuzilgan. Fan, texnika, huquq, iqtisod, madaniyat, diniy va boshqa sohalarga oid soʻzlar ham keng yoritilgan. Asosan, yangi Oʻzbek tilining izohli lugʻati yaratishda 1981 yilda tuzilgan ikki jildlik izohli lugʻati materiallaridan foydalanildi. Tahlil qiladigan boʻlsak, ikki jildlik lugʻatdan foydalanilgan boʻlsa ham Oʻzbek tili leksikografiyasini hisobga olgan holda ish tutildi. Izohli lugʻat ishlab chiqish vazifasi Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbek tili va adabiyoti instituti (hozirgi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutiga) yuklatildi. Ishlab chiqilish jarayonida avvalgi ikki jildlik lugʻatda berilgan "eskirgan" "diniy" kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yanigacha yondashuv, oʻzbekcha yoki umumturkiy boʻlmagan soʻzlar tuzilmalari (forscha, arabcha, ruscha va boshqa tillarga) mansub soʻzlar toʻgʻrisida mumkin qadar maʼlumot berib oʻtilganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, ijtimoiy hayotimizda koʻp ishlatadigan "karniz" soʻzi haqida umumiy maʼlumot bersak, nemischa, yunoncha soʻz hisoblanib, nemischa karnies, yunoncha-karonis deya talaffuz qilinadi. Uch xil maʼno ifodalaydi:

1. Deraza yoki eshik tepasiga para osish uchun kerak boʻlgan yogʻoch yoki metall.
2. Ship, bogʻot ostidagi taxta, yogʻoch yoki ganchdan qilingan bezak hisoblanadi.
3. Bino devorining ustiki qismida yoki eshik yoki deraza ustida oʻrnatilgan gorizontall bezak.

Koʻrib oʻtganimizdek, ushbu lugʻat mukammal usulda ishlab chiqilgan, Badiiy asardan namunalari orqali tushuntirilgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Lugʻatning meʼyoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, soʻz yasash va ishlatish meʼyorlari tavsiya qilinadi. Buning uchun soʻzlar lugʻatga, oʻzlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan oʻrni va qoʻllanish doirasiga koʻra kelib chiqishi-etimologiyasi, zarur hollarda talaffuzi koʻrsatilgan, maʼnosi (yoki maʼnolari) aniqlangan va izohlangan soʻzlarning, shu maʼnolarda toʻgʻri qoʻllanilishi Oʻzbek adabiy va ilmiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar-iqtiboslar bilan dalillangan. Oʻzbek tilining ushbu besh jildlik lugʻatini tarkibi bilan tanishadigan boʻlsak, unda har bir harf uchun lugʻatlar tuzilib, qaysi tildan kelib chiqqani, adabiyotdan olingan misollar orqali izohlanib ketilganiga guvoh boʻlamiz.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tili lugʻat tarkibi mazmun va shakl jihatdan nihoyatda boy va rang-barangdir. U uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan boʻlib, oʻz ichiga milliy soʻzlar, qadimiy ildizlar, turkiy tillar oilasidagi umumiy birliklar, shuningdek, boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlarni olgan. Lugʻat tarkibi tilning ijtimoiy, madaniy, ilmiy va texnologik taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq holda doimiy ravishda boyib boradi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida oʻzbek tilining davlat tili sifatida maqomi mustahkamlanishi, ilm-fan va taʼlim sohasida tilga boʻlgan eʼtiborning kuchayishi lugʻat tarkibining yangi soʻz va atamalar bilan boyishiga sabab boʻldi. Bu esa oʻz navbatida, tilimizning rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Shunday qilib, oʻzbek tili lugʻat tarkibi nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki xalqimizning madaniy-maʼnaviy merosining ajralmas qismi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati (5 jildlik). – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008. Online versiyasi: <https://til.gov.uz/ozbek-tilining-izohli-lugati>.

[2 editor@academicpublishers.org](mailto:2_editor@academicpublishers.org)

3. <https://ilmiybaza.uz/document/lugat-tarkibidagi-sozlarning-kelib-chiqishi-ijtimoiy-guruhlar-tomonidan-qollanishi-jihatidan-tavsiflanishi/>

4. <https://jdpu.uz/ona-tili-lugat-tarkibining-mano-jihatdan-tavsiflanishi-lugat-tarkibidagi-sozlarning-kelib-chiqishi-jihatidan-tavsiflanishi-ochiq-dars-mavzusini-a/>

